

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi.

Avvalo, o'quvchilar tipratikan va tipratikan urg'ochisining tumshuqchalari uchun rangli qog'ozdan konus shaklidagi qismlarni tayyorlashlari lozim. Buning uchun g'o'zalar asosining o'lchamiga mos keladigan ikkita doira chizib, qirqib olish, radius bo'ylab kesik qilish va darslikning 16-betida ko'rsatilganidek, ikkita konusni yelimlab biriktirish kerak. So'ngra darslikning 17-betida tasvirlangani kabi tumshuqchalarni chizib, g'o'zalarga yopishtirish zarur.

5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).

1. Darsda ishladim	faol / harakatsiz
2. Darsdagi o'z ishimdan	mamnun / qoniqmagan
3. Dars menga	qisqa / uzoq
4. Dars davomida men	charchamagan / charchagan
5. Kayfiyatim	yaxshilandi / yomonlashdi
6. Dars materiali menga	tushunarli / tushunarsiz
7. Uy vazifasi menga	foydali / foydasiz
	qiziqarli / zerikarli
	oson / qiyin
	qiziqarli / qiziq emas

Kutilayotgan natijalar:

- tabiiy materialdan buyumlar va rangli qog'ozdan shakllar tayyorlashni o'rgatish.

7-DARS. TOSHBAQA

Dars maqsadlari:

- hayvonot olami haqidagi tasavvurlarni kengaytirish va tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash;
- qog'ozdan turli shakldagi qismlarni qirqish, bukish va yelimlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- bir usul orqali bir xil o'lcham va shakldagi bir nechta qismlarni tayyorlashni o'rgatish;
- fazoviy tafakkur va loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, chizg'ich, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi bugungi darsning maqsadi rangli qog'ozdan toshbaqa yasash ekanligini aytadi.

O'qituvchi o'quvchilarga toshbaqalar haqida ma'lumot beradi:

***Toshbaqalar** qadimiy jonzorlar bo'lib, ular Yer yuzida 200 million yildan ortiq vaqtdan beri yashab kelmoqda. Toshbaqalarning dengiz va quruqlikda yashovchi turlari mavjud. O'zbekistonda quruqlik toshbaqalari yashaydi. Ular yovvoyi hayvonlar hisoblanib, davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Toshbaqalarni tabiatdan tutib olish va uy hayvoni sifatida sotish man etilgan.*

O'qituvchi savollar beradi:

Toshbaqalar qayerda yashaydi? (*Quruqlikda, dengizda*).

Toshbaqaning qanday ko'rinishda ekanligini eslaysizmi? Bu hayvonning asosiy xususiyati nimada? (*Toshbaqalarning kosasi bor*)

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilarning e'tiborini toshbaqa kosasini yasash uchun qanday shakldagi qismlar kerakligiga qaratadi, shu bois dumaloq shakldagi qismlar ko'p talab etiladi. O'qituvchi bir yo'la bir nechta qism tayyorlash usulini ko'rsatadi. Buning uchun bir varaq qog'ozni to'rt buklab, buklangan qog'ozga doira chizish va uni ehtiyotkorlik bilan qirqib olish kerak. Shunday qilib, bir yo'la 4 ta qism hosil bo'ladi.

Darsning bu qismi odatdagi tuzilish bo'yicha o'tkaziladi. Darslikda yordam sifatida o'quvchilar ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari uchun video yo'riqnoma berilgan.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Avvalo o'quvchilar toshbaqa kosasi uchun qismlarni tayyorlashlari lozim. Buning uchun bir xil rangdagi qog'ozdan 12 ta doira va boshqa rangdagi qog'ozdan yana 12 ta doira kesib olishlari kerak.

Keyin har bir doirani to'rt buklab, buklangan qismlarni navbatma-navbat bir-biriga yopishtirish lozim. Toshbaqaning oyoqlari va boshi qog'oz tasmalarini ikkiga buklay orqali yasaladi. Qismlarning o'lchamini o'quvchilarning o'zlari tanlaydilar.

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi.

5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).

Darsni suhbat orqali yakunlash tavsiya etiladi. Tahminiy savollar:

1. Bugungi darsda qanday yangi narsalarni o'rgandingiz?
2. Toshbaqaning kosasini nimadan yasadingiz?
3. Yumaloq shakllar yordamida yana nimalarni yasash mumkin?

Kutilayotgan natijalar:

- o'quvchilarni rangli qog'ozdan toshbaqaning hajmli shaklini yasashga o'rgatish.

8-DARS. DOIRACHALARDAN YASAYMIZ

Dars maqsadlari:

- qog'ozdan dumaloq shakldagi qismlarni qirqib olish, buklab taxlash va yopishtirish ko'nikmalarini mustahkamlash;
- bir yo'la bir xil o'lcham va shakldagi bir nechta qismni tayyorlash mahoratini mustahkamlash;
- o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Kerakli materiallar: rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalam, darslik, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi savollarni beradi:

1. O'tgan darsda nimalar qilganingizni eslab ko'ring.
2. Toshbaqa kosasini yasashda qanday shaklga ega detallardan foydalandingiz?
3. Bir vaqtning o'zida bir nechta bir xil shakllarni qanday qilib yasay oldingiz?